


## 2021-yilning yanvar-iyun oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari




Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida jami **1641,9** mldr. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,1 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **139,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,3 %** ga ko‘p bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **0,1 %** punktga kamayib, **8,6 %** ni tashkil etdi.



### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



2020- yil  
yanvar-iyun

2021- yil  
yanvar-iyun




**Ma’lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,0 %** yoki 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **41,0 %**), Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **12,0 %** yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **228,3 %** ) va Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **36,9 %**, yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **158,0 %** ) ga to‘g‘ri keldi.




## Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **58,5 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan **3,2 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **112,9 %** ni tashkil etgan holda **960,8 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **33,0 %** ni tashkil etdi yoki **542,0 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish **93,1 %** ni tashkiletdi.

## Qurilish ishlarining umumi hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **86,6** mlrd. so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1555,3** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,3** % va **94,7** % ni tashkil etdi.

## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2021-yilning yanvar-iyun oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1641,9</b>	<b>86,6</b>	<b>5,3</b>	<b>1555,3</b>	<b>94,7</b>
<b>Urganch sh.</b>	<b>349,8</b>	<b>29,7</b>	<b>8,5</b>	<b>320,1</b>	<b>91,5</b>
<b>Xiva sh.</b>	<b>91,3</b>	<b>6,1</b>	<b>6,7</b>	<b>85,2</b>	<b>93,3</b>
<b>tumanlar:</b>					
<b>Bog'ot</b>	<b>100,3</b>	<b>5,2</b>	<b>5,2</b>	<b>95,1</b>	<b>94,8</b>
<b>Gurlan</b>	<b>95,6</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>95,6</b>	<b>100,0</b>
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>98,6</b>	<b>5,2</b>	<b>5,3</b>	<b>93,4</b>	<b>94,7</b>
<b>Urganch</b>	<b>145,1</b>	<b>8,7</b>	<b>6,0</b>	<b>136,4</b>	<b>94,0</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>65,6</b>	<b>6,3</b>	<b>9,6</b>	<b>59,3</b>	<b>90,4</b>
<b>Tuproqqa'l'a</b>	<b>60,7</b>	<b>5,4</b>	<b>8,9</b>	<b>55,3</b>	<b>91,1</b>
<b>Xonqa</b>	<b>159,2</b>	<b>4,1</b>	<b>2,6</b>	<b>155,1</b>	<b>97,4</b>
<b>Xiva</b>	<b>159,7</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>159,7</b>	<b>100,0</b>
<b>Shovot</b>	<b>109,7</b>	<b>6,6</b>	<b>6,0</b>	<b>103,1</b>	<b>94,0</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>85,7</b>	<b>4,6</b>	<b>5,4</b>	<b>81,1</b>	<b>94,6</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>120,6</b>	<b>4,7</b>	<b>3,9</b>	<b>115,9</b>	<b>96,1</b>

**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2021-yil yanvar-iyun**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 77,1 % yoki **1265,7** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**77,1 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **126,5** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 10,0 % ni tashkil etdi.

**10,0 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **648,8** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 51,3 % ni tashkil etdi.

**51,3 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **490,4** mlrd. soʻmni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 38,7 % ni tashkil etdi.

**38,7 %**




**2021-yilning yanvar-iyun oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O’sish sur’ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1641,9</b>	<b>105,1</b>	<b>1265,7</b>
<b>Urganch sh.</b>	<b>349,8</b>	<b>93,9</b>	<b>286,5</b>
<b>Xiva sh.</b>	<b>91,3</b>	<b>113,2</b>	<b>66,5</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Bog‘ot</b>	<b>100,3</b>	<b>104,6</b>	<b>67,1</b>
<b>Gurlan</b>	<b>95,6</b>	<b>104,7</b>	<b>80,4</b>
<b>Qo‘siko‘pir</b>	<b>98,6</b>	<b>107,9</b>	<b>59,5</b>
<b>Urganch</b>	<b>145,1</b>	<b>102,5</b>	<b>107,6</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>65,6</b>	<b>110,7</b>	<b>47,6</b>
<b>Tuproqqa'l'a</b>	<b>60,7</b>	<b>129,9</b>	<b>47,3</b>
<b>Xonqa</b>	<b>159,2</b>	<b>117,4</b>	<b>123,8</b>
<b>Xiva</b>	<b>159,7</b>	<b>109,8</b>	<b>130,0</b>
<b>Shovot</b>	<b>109,7</b>	<b>110,8</b>	<b>97,9</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>85,7</b>	<b>100,1</b>	<b>63,0</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>120,6</b>	<b>103,3</b>	<b>88,5</b>

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

*ulushi, % da*




**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2021-yil yanvar-iyun oylarida

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:			<i>mldr.som</i>
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari	
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1641,9</b>	<b>1141,4</b>	<b>315,6</b>	<b>184,9</b>	
<b>Urganch sh.</b>	<b>349,8</b>	<b>209,8</b>	<b>108,2</b>	<b>31,8</b>	
<b>Xiva sh.</b>	<b>91,3</b>	<b>54,2</b>	<b>27,8</b>	<b>9,3</b>	
<b>tumanlar:</b>					
<b>Bog'ot</b>	<b>100,3</b>	<b>74,3</b>	<b>18,6</b>	<b>7,4</b>	
<b>Gurlan</b>	<b>95,6</b>	<b>79,0</b>	<b>4,2</b>	<b>12,4</b>	
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>98,6</b>	<b>74,4</b>	<b>16,5</b>	<b>7,7</b>	
<b>Urganch</b>	<b>145,1</b>	<b>84,9</b>	<b>38,2</b>	<b>22,0</b>	
<b>Hazorasp</b>	<b>65,6</b>	<b>58,1</b>	<b>6,4</b>	<b>1,1</b>	
<b>Tuproqqa'l'a</b>	<b>60,7</b>	<b>29,9</b>	<b>25,9</b>	<b>4,9</b>	
<b>Xonqa</b>	<b>159,2</b>	<b>87,7</b>	<b>12,4</b>	<b>59,1</b>	
<b>Xiva</b>	<b>159,7</b>	<b>121,2</b>	<b>32,8</b>	<b>5,7</b>	
<b>Shovot</b>	<b>109,7</b>	<b>88,0</b>	<b>7,6</b>	<b>14,1</b>	
<b>Yangiariq</b>	<b>85,7</b>	<b>79,2</b>	<b>6,2</b>	<b>0,3</b>	
<b>Yangibozor</b>	<b>120,6</b>	<b>100,7</b>	<b>10,8</b>	<b>9,1</b>	

2021- yilning yanvar-iyun oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati  
statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo‘limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22